

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ATAJONOVA SAIDAXON BORATALIYEVNA

**“TEXNIKA OLIYGOHLARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
O‘QITISHNI FIZIK HODISALAR ASOSIDA MODERNIZATSIYA QILISH”**

(“Mexatronika va robototexnika” bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi misolida)
13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Content of the dissertation of doctor of philosophy
(PhD) on pedagogical sciences**

Atajonova Saidaxon Borataliyevna

Texnika oliygohlarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishni fizik hodisalar asosida modernizatsiya qilish (“Mexatronika va robototexnika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi misolida).....

3

Атажонова Саидаaxon Бораталиевна

Модернизация обучения специальных дисциплин в технических вузах на основе физических явлений (на примере бакалавриата направления “Мехатроника и робототехника”).....

21

Atajonova Saidakhon

Modernization of the teaching of special disciplines in technical universities based on physical phenomena (on the example of the bachelor's degree program "Mechatronics and Robotics").....

41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....

45

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ATAJONOVA SAIDAXON BORATALIEVNA

**“TEXNIKA OLIYGOHLARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
O‘QITISHNI FIZIK HODISALAR ASOSIDA MODERNIZATSIYA QILISH”**

(“Mexatronika va robototexnika” bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi misolida)
13.00.02- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3529 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kasimaxunova Anarxan Mamasadiqovna

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Askarova O'g'iloy Mamashakirovna

pedagogika fanlari doktori, professor

Djuraev Sherzod Sobirjonovich

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Etakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika

universiteti Qo'qon filiali

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03.30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "08" aprel kuni 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-binosi, 2-qavat, 313-xonasi)

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 512-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "27" mart kuni tarqatildi.

(2023-yil "27" martdagi №106-raqamli reestr bayonnomasi).



R.M. Muradov

R.M. Muradov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T. Bobojanov

X.T. Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Q.M. Xolikov

Q.M. Xolikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jaxonning barcha rivojlangan mamlakatlarida ta'lim tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dolzarb muammolardan biri sanalib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim kontsepsiyasida ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalarga asoslangan "Education 4.0" dasturi asosida modernizatsiya qilish ta'lim taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi e'tirof etilmoqda¹. Bu borada Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Xitoy, Polsha va boshqa dunyoning yetakchi davlatlari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion g'oyalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish sohasidagi xalqaro tadqiqotlar metodologik asos vazifasini bajarmoqda. SHuningdek texnika oliygoxlarida zamonaviy muxandis kadrlarni keskin rivojlanib borayotgan texnika va texnologiyalar davrida bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan kadr qilib yetishtirishga qaratilgan ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zaruratini taqozo etadi.

Dunyoda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv reja xamda o'quv dasturlarni zamonaviy bozor talablari asosida ishlab chiqishga doir qator ishlar amalga oshirilib, texnika oliygoxlarida ta'lim jarayoniga innovatsion o'qitish usullarini va yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etishni to'liq qamrab oladigan tizimli tadqiqot olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. SHu jihatdan muxandis kadrlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish, ma'ruza xamda amaliy mashg'ulotlarni texnologik jarayonlarda sodir bo'ladigan fizik xodisalarni vizual dasturlardan foydalangan xolda tashkil etish muhim axamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'limni modernizatsiyalash va ta'limni isloh qilish, ta'lim tizimiga innovatsiyalarni joriy etish muammolariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Texnika oliygoxlari ta'lim tizimida bo'lajak muxandislarni kadrlar iste'molchilari talablari asosida zamonaviy fanlar va ularni o'qitish algoritmlari, yangi avlod darsliklari, elektron dasturiy ishlanmalar, vizual o'qitish metodikalari, murakkab texnologik jarayonlarni va ularning fizik xodisalarini multimedialar vositalari asosida tushuntirishga qaratilgan modellar yaratish xamda shu modellarni o'quv jarayoniga tadbiq etishga xizmat qiluvchi yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son qarori²da iqtisodiyotning iqtisodiy sektori va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, shuningdek, ilmiy, intellektual va moliyaviy resurslarni umumiy safarbar etgan holda ilmiy va innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanish bo'yicha muxim vazfalar belgilab berildi. Bu esa, ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish,

¹ *Education 2030. Incheon Declaration and Framework for Action.* / http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en_2.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, <https://lex.uz/docs/5073447>

kelajak uchun ilm-fanni uzluksiz qayta shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va belgilash, shuningdek, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tezkor modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni joriy etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3682-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son, 2018 yil 5 iyundagi 3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarish, texnika oliygoxlarida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda Oliy kasbiy ta'limni modernizatsiya qilish va o'qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqishga quyidagi taniqli olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan: I.F. Isaev, X. A. Turakulova, I. S. Jabborova, R.J. Ishmuxamedov, A. Paradaev, J.G. Yuldoshev, S.A. Usmonov, A.A. Xodjaniezova, M. Lutfulloev, A.M. Kasimaxunova, M.A. Fayziev, N.N.SHOEVlar ta'limni modernizatsiyalash muammosini tadqiq etganlar.

Mustaqil davlat hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A. M. Aleksanov, M.P.Lapchik, I.A.Zimnyaya, V.V.Altunina, T.V.Lavrik, Ye.S.Anichkin, V.I.Baydenko, L.V.Detusheva, I.Farxudinov, E.Z.Faxrutdinova, T.V.Nikulina, B.L.Vulfson., Z.A.Malykova, A.Yu. Belogurov, A.G.Asmolov, A.A.Evdokimov., G.A.Sagadeeva va boshqalar tomonidan oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalasida izchil tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan M.Pan, A. Zhang, Y. Zhang, Y.Ling, T.Martin, Molins-Ruano P.D. Dewey, V.K.Maheshwari, Z.Qu, See Pico, H. Hardika, Colomo-Palacios R.García-Peñalvo F.J.Holbrook J.B.Lapeniene, B. Frame and J. Brown, K.Adams va boshqalar muxandis kadrlarni tarbiyalash masalalarini yoritganlar.

Biroq, nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda yetuk, xamda texnika oliygoxlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish muammosining yetarli darajada rivojlanmaganligi texnika oliygoxlarida mutaxassislik fanlarni fizik hodisalar asosida o'qitishni modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy ishlanishlarni olib borish bugungi kunda yetarli darajada o'rganilmagan va dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik institutining AIF 2/21 "MECHAUZ: "Mexatronika

va robototexnika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalari asosida modernizatsiya qilish" (2019-2022) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnika oliygohlarida fizik hodisalar asosida mutaxassislik fanlarini o'qitish tizimi va usullarini modernizatsiya qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarga mexatronika va robototexnika fanlarini o'qitishning pedagogik jihatlarini aniqlashtirish;

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning o'quv faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish;

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga doir komponentlarini aniqlashtirish;

mexatronika va robototexnika yo'nalishi talabalarining egallagan bilimlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarga mexatronika va robototexnikaga oid mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarga mexatronika va robototexnika fanlarini o'qitishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, ijtimoiy-psixologik tashxis, taxlil, pedagogik tajriba-sinov, suhbat, taqqoslash, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, umumlashtirish va matematik-statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarga mexatronika va robototexnika fanlarini o'qitishning pedagogik jihatlari o'zlashtirgan bilimlarni ob'ektiv reallikka munosabatini pedagogik kibernetikaga asoslangan nazariya va texnologiyalarning integratsion tizimga xos xususiyatlariga ko'ra aniqlashtirilgan;

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning o'quv faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarining ilmiy tajribalarni o'zlashtirish darajasi orqali ifodalangan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishda qayta takrorlanish imkoniyatini yaratish uchun belgilangan o'quv maqsadini faoliyatli-mazmunli uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga doir innovatsion-informatsion, metodik-texnologik kabi komponentlari ta'lim sifati indikatorlarining maqsadli, tizimli, izchil, amaliy harakatlarni tashkil etishga qaratilgan ko'rsatkichli-darajaviy jihatlariga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan;

mexatronika va robototexnika yo'nalishi talabalarining egallagan bilimlarini rivojlanganlik darajasi o'quv jarayoni prognostikasi, egallagan bilimlarni eksperimentlarga taqqoslash yo'li bilan ularni tekshirish, tajribaviy tasdiqlash,

uyg'unlashtirish kabi intellektual koeffitsentni intensiv aniqlashtirishga ustivorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

xorijiy tajriba asosida "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi uchun modernizatsiya qilingan o'quv reja, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tarkibiy-funksional modeli va algoritmi yaratilgan;

"Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi uchun xamda aynan shu ta'lim yo'nalishi "2+2" dasturi asosida o'quv reja, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari modernizatsiya qilingan;

texnika yo'nalishlari mutaxassislik fanlari o'qituvchilari kompetentligini tekshirish va baxolash uchun talab qilinadigan mezonlarning struktura sxemasi ishlab chiqilgan;

elektron qurilmalarda fizik hodisalarni, shuningdek yarimo'tkazgichlarning elektrofizik xususiyatlarini va matematik formulalarni vizualizatsiya qilish asosida mutaxassislik fanlarini o'rganishda talabalarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion va interfaol o'qitish usullari, jumladan "Do'st yoki dushman", "Gallar eliksiri", "To'rtta savol" kabi interfaol usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

texnika oliygoxlari mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanish uchun "Yarim o'tkazgichli asboblar" deb nomlangan darslik xamda "Yarim o'tkazgichli asboblar va ularning fizik xususiyatlari" deb nomlangan o'quv qo'llanma yaratilgan;

texnika oliygohlarida mutaxassislik fanlarini o'qitishni fizik xodisalarga asoslangan yangi metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi turli ilmiy manbalarni o'rganish orqali fizik hodisalar va fizika qonunlarini ochib berish bilan ta'minlanadi, uslubiy jihatdan asoslangan nazariy hisob-kitoblarni amalga oshirish, ta'limni modernizatsiya qilishning nazariy asoslangan konsepsiyalarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishda raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalardan foydalanish, taklif etilayotgan usullarning kerakli darajada yaqinlashishi, shuningdek o'rganilayotgan ish usullarining uning maqsad va vazifalariga muvofiqligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari va ularning o'zaro izchilligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy* ahamiyati elektronika, nanoelektronika, texnologik jarayonlar va intellektual boshqaruv muammolarini hal qilishga imkon beruvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining elektron qurilmalarini loyihalash va qurish bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalarini singdirish imkonini beruvchi murakkab fizik-texnikaviy masalalarni o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy* ahamiyati "Yarim o'tkazgichli asboblar" fani bo'yicha yangi avlod adabiyotlarini yaratilganligi, mutaxassislik fanlarini o'qitishda murakkab fizik va texnik vazifalarni o'rganishni osonlashtiruvchi o'yinli hamda vizual metodlarni qo'llash orqali mexatron modullar, robototexnik tizimlar va

avtomatik ishlab chiqarish tizimlarini loyihalash, qurish xamda takomillashtirish bo'yicha mustaqil ish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muxandislarga mexatronika va robototexnika fanlarini o'qitishning pedagogik jihatlari o'zlashtirgan bilimlarni ob'ektiv reallikka munosabatini pedagogik kibernetikaga asoslangan nazariya va texnologiyalarning integratsion tizimga xos hususiyatlariga muvofiq aniqlashtirishga oid takliflardan Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan AIF2/21 "MECHAUZ: "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida modernizatsiya qilish" (2019-2022 yillar) loyahasini amalga oshirishda foydalanilgan (Andijon mashinasozlik institutining 2022 yil 24 maydagi 38-05/877-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun ishlab chiqilgan modernizatsiya qilingan yangi o'quv reja, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlar va bir qator yangi o'quv uslubiy adabiyotlar asosida talabalarning kasbiy kompetentsiyasini takomillashtirishga erishilgan.

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning o'quv faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarning ilmiy tajribalarni o'zlashtirish darajasi orqali ifodalangan o'quv natijalarini to'la tashxislash va o'qitishda qayta takrorlanish imkoniyatini yaratish uchun belgilangan o'quv maqsadini faoliyatli-mazmunli uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "O'zbekistonda Oliy ta'lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini yaratish (SYNERGY)" (2019-2022 yillar) AIF 1/3-son grant loyahasida foydalanilgan (OO'MTVning 2022 yil 25 avgustdagi 02/01-01-32-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish kompetentsiyasini takomillashtirishga erishilgan;

texnika oliygohlarida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga doir innovatsion-informatsion, metodik-texnologik kabi komponentlari ta'lim sifati indikatorlarining maqsadli, tizimli, izchil, amaliy harakatlarni tashkil etishga qaratilgan ko'rsatkichli-darajaviy jihatlarga ustivorlik berish asosida takomillashtirishga xamda mexatronika va robototexnika yo'nalishi talabalarining egallagan bilimlarini rivojlanganlik darajasi o'quv jarayoni prognostikasi, egallangan bilimlarni eksperimentlarga taqqoslash yo'li bilan ularni tekshirish, tajribaviy tasdiqlash, uyg'unlashtirish kabi intellektual koeffitsentni intensiv aniqlashtirishga ustivorlik berish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan eRASMUS+ dasturi asosida "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida

modernizatsiya qilish" (2019-2023 yillar) nomli grant loyixasini amalga oshirishda foydalanilgan. Loyiha kodi-609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP. (OO‘MTVning 2022 yil 25 avgustdagi 02/01-01-32-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Mexatronika va robototexnika” bakalavriat yo‘nalishi talabalarning ilmiy-innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirishga va ta’lim sifati va samaradorligini oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. SHuningdek, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalari, ilmiy tadqiqotchilari va o‘qituvchilari uchun tavsiya etilgan "Yarim o‘tkazgich asboblari" nomli bitta darslik va "yarim o‘tkazgich asboblari va ularning fizik xususiyatlari" nomli o‘quv qo‘llanmalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslanib, olingan asosiy natijalar va amaliyotga joriy etish to‘g‘risidagi ma’lumotlar qisqacha tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**Fizik hodisalar asosida mutaxassislik fanlarni o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida oliy o‘quv yurtlarida ta’limni modernizatsiya qilish kontseptsiyalari, fizik hodisalar asosida mutaxassislik fanlarini o‘qitishning xorijiy tajribasi va usullari tahlili, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida mutaxassislik fanlarini o‘qitishni qurilmalarning fizik xususiyatlarini tushintirish orqali o‘qitish usullarini modernizatsiya qilish sohasidagi yutuq va muammolarga bag‘ishlangan qisqacha adabiyotlar sharhi berilgan.

Adabiy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, texnika oliygohlarida mutaxassislik fanlarni o‘qitish jarayonida ta’limni modernizatsiya qilish va yangi innovatsion usullarni joriy etishga juda kam e’tibor qaratilmoqda. Ko‘pincha oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonlarida talabaning individual ko‘nikmalari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydigan va ta’lim sifat ko‘rsatkichlarining barqaror ijobiy o‘sishiga yo‘naltirilmaydigan klassik ma’ruza va seminar usuli qo‘llaniladi. fanlarini o‘qitish jarayonida ta’limni modernizatsiya qilish va yangi innovatsion usullarni joriy etishga juda kam e’tibor qaratilmoqda. Ko‘pincha oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonlarida klassik ma’ruza va seminar usuli qo‘llaniladi, bu talabaning individual ko‘nikmalari, talablari va imkoniyatlarini yetarlicha hisobga olmaydi va ta’lim sifat ko‘rsatkichlarining barqaror ijobiy

o'sishiga yo'naltirilmaydi. Holbuki, chet elda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda: AQSH, Germaniya, Angliya, Frantsiya va boshqalarda yangi noan'anaviy va yuqori samarali o'qitish texnologiyalarini izlashga va sifatli ta'lim natijalarini asoslaydigan yangi pedagogik va didaktik tushunchalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ko'pchilik ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish haqida fikr yuritganda, eski kontentni yangilash haqida o'ylashadi, lekin bu modernizatsiyaning faqat bir qismi xolos. Ta'limni muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish strategiyasi ikki qismdan iborat: kontentning qarishiga javob bera olish va uzoq davom etadigan va yangilanishi oson bo'lgan yangi kontentni faol ravishda yaratish.

Modernizatsiya qilingan ta'lim to'g'ri amalga oshirilganda, ishdan qoniqish, samaradorlik va xodimlarni ushlab turishni yaxshilashi mumkin.

Texnik fanlarda modernizatsiya to'rtta kontseptual formuladan foydalangan holda tushuniladi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Modernizatsiyaning kontseptual shakllari

Ta'limdagi modernizatsiyaning ta'siri ko'p hollarda ijobiydir. Zamonaviy usullar va strategiyalar odamlarni juda rag'batlantiradi va rag'batlantiradi. Modernizatsiyaning asosiy ta'sir doiralari shakllantirilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Modernizatsiyaning asosiy ta'sir doiralari

"Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi maxsus fanlarining fizika kursi bo'limlari va mexatronikaning asosiy tarkibiy qismlari bilan fanlararo aloqalari aniqlandi (3-rasmga qarang).



3 - rasm. Fanlararo aloqalar

Ilg'or bosqichda "Fizika" fani talaba tanlagan kelajakdagi ilmiy yoki muhandislik kasbiy faoliyat sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilmiy fan sifatida o'rganiladi. Bu yerda kontentni yangilash zamonaviy fizikaga oid savollarni kiritishdir. Chuqur darajadagi fanning mazmunini "Qattiq jismlar fizikasi", "Atom va yadro fizikasi" kabi aniq bo'limlarni va zamonaviy fizika yutuqlari bilan bog'liq boshqa (bilimlar doirasida matematika dasturlari tomonidan taqdim etilgan) faktlar va grafiklarni to'ldirish nuqtai-nazaridan o'zgartirish kerak (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Fizika kursi bo'limlari va mexatronikaning asosiy tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi.

Fizika kursining bo'limlari	Makroskopik fizika					Mikroskopik fizika					
	Mexanika	Termodinamika	Optika	Elektrodinamika	Atom fizikasi	Statistik fizika	Kondensirlangan muhit fizikasi	Kvant fizikasi	Yadro fizikasi	Yuqori energiya fizikasi	Elementar qismlar fizikasi
Mexatronikaning asosiy komponentlari	Klassik mexanika, ebyativistik mexanika, shuningdek atrof-muhit mexanikasi (akustika, gidrodinamika, qattiq jismlar mexanikasi)	Notekis termodinamika	Fizik optika, kristallo-optika, molekulyar va nochiyziqli optika	Magnitoelektrodinamika, elektrodinamika xanda atrof muhit, elektrodinamika		Statistik mexanika, fizik kinetika, xanda statistik maydon nazariyasi	Suyuqlik va qattiq jismlar fizikasi, nanostruktura fizikasi, xanda atom va molekulyar fizikasi	Mavdon kvant nazariyasi, kvant mexanikasi, kvant xromodinamikasi, kvant elektrodinamikasi			
Mexanika	■					■					
Elektronika				■							
Mikroprotessor texnikasi				■							
Informatika Mashina va agregatlarning harakatini kompyuterli boshqarish	■	■	■	■	■	■	■	■	■	■	


Dissertatsiyaning "Mutaxassislik fanlarini o'qitishni modernizatsiya qilish metodologiyasining mazmuni" deb nomlangan ikkinchi bobda innovatsion g'oyalar

asosida "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yoʻnalishi oʻquv rejasi va oʻquv dasturini modernizatsiya qilish boʻyicha maʼlumotlar taqdim etilgan.

Oʻquv dasturlarini modernizatsiya qilish oʻquvchilarning faktlar, qoidalar va tartiblarni eslab qolishlarini kutishdan, ularda jamiyat va iqtisodiyot muammolarini hal qilish va ijodiy fikrlash uchun kengroq darajadagi yuqori darajali koʻnikmalarni, yaʼni talabalarning hayotiy ehtiyojlariga koʻproq mos keladigan koʻnikmalarni rivojlantirishga oʻtishni anglatadi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari davomida Oʻzbekiston Respublikasi Akademik Innovatsiyalar Fondi koʻmagida Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan 60 000 AQSH dollari miqdorida grant yutib olindi. Ushbu loyihaning mavzusi "MECHAUZ "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yoʻnalishi oʻquv rejalarini va oʻquv dasturlarini innovatsion gʻoyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish" deb nomlanadi.

Mazkur loyihaning samarasini mexatronika va robototexnika yoʻnalishi boʻyicha bakalavriat taʼlim yoʻnalishi uchun modernizatsiya qilingan oʻquv reja, oʻquv dasturi va oʻquv-uslubiy taʼminot va laboratoriya jihozlarida koʻrish mumkin. Yangi modernizatsiya qilingan oʻquv dasturi barcha zamonaviy talablarga javob berishi kerak, shunda oʻquvchilar kundalik hayotda duch keladigan amaliy muammolarni hal qila oladilar (4-rasmga qarang).




4 – rasm. Kasbiy vazifalarni faoliyat turlari bilan bogʻlash

Modernizatsiya nafaqat akademik oʻquv dasturlari eskirganligi, balki talabalarni eng yuqori tezlikda sodir boʻladigan texnologik yutuqlarga tayyorlagani uchun ham zarur. Bu talabalarga anʼanaviy koʻnikmalardan va texnologik tajribadan teng qulaylik bilan foydalanish imkonini beradi, shuning uchun ular oʻzgaruvchan vaqtga moslasha oladilar.

Biz TT (taʼlim texnologiyalarini) modernizatsiya qilish va uni texnika oliygozlarida mutaxassislik fanlarining oʻquv dasturiga kiritish algoritmini ishlab

chiqdik. Ushbu algoritm texnika oliygohlarida mutaxassislik fanlari uchun o'quv dasturini har tomonlama isloh qilishni ta'minlaydi (5-rasmga qarang).




5 - rasm. Fanning o'quv dasturini modernizatsiya qilish algoritmi

Texnika oliygohlarida ushbu fazilatlariga qo'shimcha ravishda o'qituvchining bir nechta ko'rsatkichlari talab qilinadi. Ushbu ijtimoiy masalalarni o'rganish va tahlil qilish kelgusidagi muammolarni qisman hal qilishga qaratilgan.

Texnik qurilmalar va uskunalar, ish sharoitlariga qarab, turli xil xizmat muddatlariga ega. Buning sababi shundaki, sotib olingan tovarlar iste'molchisi har doim ham to'g'ri ishlashga yaroqli emas va deyarli zarar sabablarini tushunish qiyin. Ba'zan buzilmagan qurilma xam foydalanishga yaroqsiz holga keladi. Chunki tabiiy

sharoitlarda sotib olingan qurilma o'zining pasport ma'lumotlarida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bilan ishlay olmaydi. Bunday asosiy sababi yosh mutaxassis yoki asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchisi, barcha qurilmalarning fizik parametrlarining atrof-muhit sharoitlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligini, shuningdek, savodli tarzda ishlatishni bilmasligidadir. Sanoat korxonalaridagi salbiy batsiz hodisalar ushbu sabablarning oqibati hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, elektron texnika bilan bog'liq mashg'ulotlarni o'tkazish nafaqat yuqori malakani, balki ba'zi mezonlarga muvofiq mahoratni ham talab qiladi (6 - rasimga qarang).




6 - rasm. Texnik fanlar o'qituvchilariga oliy va o'rta maxsus texnik va kasb-ihunar ta'limi muassasalarining talab qilinadigan mezonlari tarkibi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Mutaxassislik fanlarini o'qitishning interfaol usullarini joriy etish va pedagogik tajriba natijalari**" deb nomlangan. Unda "Texnik insho" uslubiy ishlanmasi misolida, mutaxassislik fanlarini o'qitishda fizik hodisalar asosida innovatsion g'oyalar va usullarni rivojlantirish shartlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Yarimo'tkazgich materiallarning elektrofizik xususiyatlarini va matematik formulalarni o'rganish uchun talabalarni o'qitishning yangi interfaol usullari batafsil yoritilgan. Eksperimental guruhda "Quyosh nurlanishining fizik jarayonlar sodir bo'ladigan qurilmaga ta'siri darajasi" ni tushuntirish uchun bu hodisa o'yin usulida tushuntirildi. Nurlanish kvantlarini talaba qiziqishi uchun Rimliklarga qarshi jang qilgan "Gallar eliksiri"ni ichib jang qiluvchi Gallar tasvirlangan, ushbu eliksir ma'lum darajada zaryadga ega, eliksirning inson tanasiga kuchaytiruvchi ta'sirga ega (eng yomon holatda) yoki ba'zi ichki o'zgarishlarga, shuningdek energiya sarflaydigan yorug'lik nurlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi elektronning xususiyatiga ta'sir qiladi va yarimo'tkazgich qurilmasi misolida fizik jarayonning kelib chiqishida

faol ishtirok etadi. SHuning uchun elektron qurilma (masalan, kuchaytirgich), tashqi ta'sir natijasida ushbu qurilmada signalning kuchayishi yoki pasayishi kuzatiladi, buning asosida odatda texnologik jarayonlar yaratiladi. 7 - rasmda eliksir ichib olgan Gallar misolida kuchaytirgichda signal kuchayishining vizual ko'rinishi keltirilgan.



7-rasm. AB sinfga mansub kuchaytirgich ishlash printsiipi

Ma'lum bo'lishicha, mashg'ulotlarni raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan yangi innovatsion va interfaol usullar bilan olib borishda nafaqat dars sifati yaxshilanadi, balki o'qituvchining ishi ham osonlashadi, shuningdek, talabalarning ilmiy faoliyati darajasi oshadi. Jarayonlarni tushunish, individual vazifalarni hal qilish (mustaqil ishlar, kurs loyihalari va masalalar va keyslar misolida joriy topshiriqlarni hal qilish) osonlashadi, guruh faoliyati yaxshilanadi va ba'zi talabalar mashg'ulotlardan so'ng shug'ullanadigan hunarmandchilik yoki kasbiy malakasiga asoslangan holda o'tilayotgan mavzuga qiziqishi ortadi.

Elektr tokining mavjudligi bilan ish olib boriladigan energiya va elektronika sohasida xato qilish mumkin emas. Har bir xato fojiali natijaga olib keladi. SHu sababli talabalarga, murakkab matematik formulalarni tushunish juda oson bo'lishi uchun formulalar bilan muloqot qilish yoki suhbatlashish mumkinligini tushuntirish kerak. Talaba va formulaning o'z lug'ati bo'lishi kerak. Lug'at sifatida yarimo'tkazgichning ma'lum bir parametrini tavsiflovchi belgilar to'plamini keltirishimiz mumkin. Masalan, σ - elektr o'tkazuvchanligi, ρ - materialning solishtirma qarshiligi, ε - dielektrik doimiylik, χ - issiqlik o'tkazuvchanlik, I - elektr toki, U - elektr kuchlanish, W - elektr quvvati, R - ko'rib chiqilayotgan materialning faol qarshiligi va boshqalar. Talaba qaysi parametrni nimani anglatishini o'rganmaguncha, undan mavzuning keyingi materialini o'rganishni yaxshi davom ettirishini kutish mumkin emas. Belgilarni o'rganish muhimligini tushuntirgandan so'ng, siz oddiy matematik ifodalarga va kasrlarga o'tishingiz mumkin. Bu yerda biz "Dushman yoki do'st?" usulini qo'llashni tavsiya etamiz. Nima uchun usul shunday nomlangan? Bu quyidagicha tushuntiriladi: birinchidan, maktab kursidan ma'lumki, suratdagi raqam ((1) formulaga qarang), tenglik belgisining chap tomonida joylashgan parametr qiymatini oshirishga yordam beradi (Om qonuni):

$$I = \frac{U}{R} \quad (1)$$

ya'ni, materialning R - qarshilik parametrining doimiy qiymati bilan kuchlanish qancha yuqori bo'lsa, elektr toki shuncha ko'p bo'ladi. U kattalikni I parametrning do'sti sifatida tushuntiriladi. So'ngra, R - parametrining o'sishi ($U = const$ bilan, ya'ni kuchlanish doimiyliigi bilan) tok qiymatining pasayishiga olib keladi, bu I

parametrining o‘shishiga to‘sqinlik qiladi yoki boshqacha qilib aytganda dushmanlik qiladi. Demak, dushman bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qonuniyat deyarli barcha matematik formulalarda o‘z metin xarakterini saqlab qoladi. Talaba bu hodisani qattiq jism tasavvur qila olsa, u ushbu parametrlarning qiymatlarini qanday yo‘llar bilan tartibga solinishi mumkinligini o‘ylashni boshlaydi. Talabada masalaga nisbatan tadqiqot yondashuvi uyg‘ona boshlaydi.

Bobning yakunida ishlab chiqilgan usullarning samaradorlik koeffitsientini St‘yudent usuli bo‘yicha pedagogik tajriba va uning natijalarini tahlil qilish tushuntirilgan.

Umuman olganda, tadqiqot doirasida o‘tkazilgan eksperimental ishlarga 321 respondent-talabalar jalb qilindi. Professor-o‘qituvchilar bilan tajriba ishlarining natijalarini aniqlash va umumlashtirish, ularni tahlil qilish, ushbu sohadagi eksperimentchilarga zarur ko‘rsatmalar berish va natijalarni ob‘ektiv baholash uchun pedagogik hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Natijalar "mustaqil ekspertlar" sifatida jalb qilingan professorlar tomonidan nazorat qilindi va baholandi.


O‘quv jarayonida "Mexatronika va robototexnika" maxsus fanlarida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan interfaol ta‘limning o‘quv-uslubiy ta‘minoti sinovdan o‘tkazildi va talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish darajasi (yuqori, o‘rta, past) aniqlandi. Belgilangan mezonlar asosida eksperiment davomida individual topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, individual va kichik guruhlarda ishlash uchun didaktik topshiriqlar, rol o‘yinlari, seminar-treninglar o‘tkazildi va so‘raldi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish darajasi bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari quyidagicha edi:


– nazorat guruhlarida tajriba boshida talabalarning 10,6% yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lca, tajriba oxirida talabalarning 12,7% yuqori darajaga erishdi (8-rasmga qarang), tajriba-cinov guruhlarida eca tajriba boshida talabalarning 10,6% yuqori daraja ko‘rsatgan bo‘lca, tajriba oxirida eca ularning 32,5% yuqori darajaga erishdi (9-rasmga qarang).

– o‘rtacha ko‘rsatkichga erishgan talabalar con nazorat guruhlarida daqtlabki bocqichda 32,5% bo‘lgan bo‘lca , oxirgi bocqichda bu ko‘rsatkich 36,7% ni tashkil etdi (8-rasmga qarang), tajriba-cinov guruhlarida daqtlab bu ko‘rsatkich 33,5% bo‘lca, tajriba oxirida 51,9% ga erishildi (9-rasmga qarang);

– pact darajadagi ko‘rsatkichli talabalar con nazorat guruhlarida 56,9% dan 50,6% ga kamaydi (9-rasmga qarang), tajriba-cinov guruhlarida eca 55,9% dan 15,6% ga kamaydi (8-rasmga qarang).



8 - rasm. Nazorat guruhida ($n_1=160$) talabalarning kasbiy tayyorgarliklarining rivojlanganlik darajasi



9 - rasm. Tajriba guruhida (n=161) talabalar kasbiy tayyorgarliklarining rivojlanganlik darajasi

Tajriba-cinov ishlari natijacida olingan ko'rsatkichlar mocligi va farqlarining haqqoniyligini tekshirish uchun Stuydent matematik-statistikacidan foydalanildi (2, 3 - jadvallar).

2 -jadval

TAJRIBA BOSHIDA Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Guruxlar		Andijon mashinasozlik instituti	Jizzax politexnika instituti	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	Jami
O'rtacha qiymat	Tajriba guruhi	\bar{X}_n	3,52	3,50	3,62	3,55
	Nazorat guruhi	\bar{Y}_n	3,53	3,45	3,63	3,54
Samaradorlik koeffitsenti		η	1,00	1,01	1,00	1,00
Tanlanma dispersiya	Tajriba guruhi	S_x^2	0,46	0,44	0,46	0,46
	Nazorat guruhi	S_u^2	0,46	0,40	0,50	0,46
Standart xatolik	Tajriba guruhi	S_x	0,68	0,67	0,68	0,68
	Nazorat guruhi	S_u	0,68	0,64	0,71	0,68
Aniklash kursatkichi	Tajriba guruhi	C_x	2,59	2,64	2,58	1,51
	Nazorat guruhi	C_u	2,54	2,58	2,70	1,52
Ishonchliqlik oralig'i	Tajriba guruhi	a_x	3,34	3,32	3,44	3,44
			3,70	3,68	3,80	3,65
	Nazorat guruhi	a_u	3,35	3,28	3,44	3,43
			3,71	3,62	3,82	3,77
Stuydent statistikasi			0,13	0,13	0,14	0,08
			0,08	0,39	0,07	0,12
Statistikaning ozodlik darajasi			111	101	103	319,0
Kritik qiymat			1,97	1,97	1,98	1,96
Kriteriy xulosasi	N_0	N_1	N_0	N_0	N_0	N_0

TAJRIBA OXIRIDA Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Guruxlar		Andijon mashinasozlik instituti	Jizzax politexnika instituti	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	Jami
O'rtacha qiymat	Tajriba guruhi	\bar{X}_k	4,09	4,15	4,26	4,17
	Nazorat guruhi	\bar{Y}_k	3,61	3,55	3,71	3,62
Samaradorlik koeffitsenti		η	1,13	1,17	1,15	1,15
Samaradorlik koeffitsenti tajriba boshiga nisbatan Taj		η	1,16	1,19	1,18	1,18
Samaradorlik koeffitsenti tajriba boshiga nisbatan Naz		η	1,02	1,03	1,02	1,02
Tanlanma dispersiya	Tajriba guruhi	S_x^2	0,48	0,48	0,38	0,45
	Nazorat guruhi	S_u^2	0,45	0,48	0,52	0,49
Standart xatolik	Tajriba guruhi	C_x	0,69	0,69	0,62	0,67
	Nazorat guruhi	C_y	0,67	0,69	0,72	0,70
Aniklash kursatkichi	Tajriba guruhi	C_x	2,29	2,31	1,99	1,28
	Nazorat guruhi	C_y	2,49	2,74	2,73	1,54
Ishonchliylig' oraliq'i	Tajriba guruhi	a_x	3,91	3,96	4,10	4,06
			4,27	4,34	4,43	4,27
	Nazorat guruhi	a_y	3,43	3,36	3,51	3,51
			3,79	3,74	3,90	3,86
Styudent statistikasi			0,13	0,14	0,13	0,08
			3,70	4,40	4,23	7,13
Statistikaning ozodlik darajasi			109	101	102	316
Kritik qiymat			1,97	1,97	1,98	1,97
Kriteriy xulosasi	N_0	N_1	N_1	N_1	N_1	N_1

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlanganlik darajasi o'rta hisobda 15 % oshishiga erishildi va natijalar matematik-statistik metodlar orqali isbotlandi. Olingan natijalar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik modelni hamda metodikani samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

1. "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida yangi modernizatsiya qilingan o'quv dasturi va kasbiy talablar ishlab chiqildi.

2. Ta'limni modernizatsiya qilish va o'quv dasturlarini ishlab chiqishning takomillashtirilgan algoritmi, shuningdek, texnik oliy o'quv yurtlarida ta'lim integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi maxsus fanlar bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqildi.

3. Oliy va o'rta maxsus texnika va kasb-hunar ta'limi muassasalarining texnika fanlari o'qituvchilari uchun talab qilinadigan mezonlar tuzilmasi ishlab chiqildi.

4. Maxsus fanlarni fizik hodisalarga asoslangan holda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari ishlab chiqildi.

5. elektron qurilmalarda fizik hodisalarni, shuningdek, yarim o'tkazgichlarning elektrofizik xossalarini va matematik formulalarni ko'zdan kechirish asosida maxsus fanlar talabalarining ish faoliyatini yaxshilash uchun yangi innovatsion va interfaol o'qitish usullari ishlab chiqildi.

6. "Mexatronika va robototexnika" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv rejasi, o'quv rejasi, umumta'lim dasturini modernizatsiya qilish algoritmi, yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarning samaradorligi va samaradorligi eksperimental sinovdan o'tkazildi.

Tavsiyalar.

1. Eng qiziqarli tushuntirish usullarini ishlab chiqish, belgilar, chizmalar, grafiklar va formulalarni batafsil o'rganish bilan tinglovchining e'tiborini jalb qiluvchi psixologik holatiga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. Bilimlarni kengaytirish va esdalik darajasini oshirish uchun ishlab chiqilgan usullar hayotdan va atrof-muhitdan olingan misollarga asoslanishi kerak.

3. Misollar tabiiy, takrorlanuvchi va qiziqarli bo'lishi kerak.

4. Darhaqiqat, elektron texnologiyaning rivojlanishi yarimo'tkazgichli elementlar va qurilmalarga asoslangan.

SHuning uchun fizika fani va elektronika, mikro va nanoelektronika bilan bog'liq boshqa texnik fanlar o'qituvchilari yarim o'tkazgichli qurilmalarga oid mavzularni tushuntirishda e'tibor berishlari, elektr zanjirlari, grafiklar va muhandislik chizmalarini tushunishga o'rgatishlari kerak. Bu akademik samaradorlikni oshirishga va loyihalarni tahlil qilish, innovatsiyalar va tadqiqot xususiyatlariga oid ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bunday muhandis kadrlarni tayyorlash mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga, mehnat unumdorligining oshishiga, texnika va texnologiyaning rivojlanishiga, eng muhimi, bozor iqtisodiyoti sharoitida muhandislik maktablari bitiruvchilarining ishsizlar sonining kamayishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Т.66.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

АТАЖОНОВА САИДАХОН БОРАТАЛИЕВНА

**“МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБУЧЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В
ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ”**

(на примере бакалавриата направления “Мехатроника и робототехника”)

13.00.02- Методика и теория образования и воспитания

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган - 2023

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № Б2022.2.PhD/Пед 3529

Диссертация выполнена в Андижанском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации на трех языках (русский, узбекский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и Информационно-образовательном портале «Зиёнет» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Касимахунова Анархан Мамасадиқовна**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Асқарова Ўғилой Мамашақировна**
доктор педагогических наук, профессор

Джураев Шерзод Собиржонович
кандидат технических наук, доцент.

Ведущая организация: **Кокандский филиал Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится “08” апреля 2023 года в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 03/30.12.2019.Т.66.01 при Наманганском инженерно-технологическом институте (Адресу: 160115., г. Наманган, ул. Касансайская – 7, Административное здание Наманганского инженерно-технологического института, 1й-этаж, малый зал совещаний тел. (+99869) 228-76-68, факс (+99869) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована за № 512) Адрес: 1690115., г. Наманган, ул.Касансайская - 7, тел. (+99869) 225-76-68.

Автореферат диссертации разослан “27” марта 2023 года.
(протокола реестра № 106 от “27” марта 2023 года).



Муродов

Р.М. Муродов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Бобожанов

Х.Т. Бобожанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Холиков

К.М. Холиков
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие и модернизация системы образования во всех развитых странах мира считается одной из актуальных проблем, а в международной концепции образования до 2030 года признано, что модернизация образовательных учреждений с помощью «Education 4.0», основанная на цифровых технологиях и инновационных идеях, является одним из приоритетных направлений развития образования¹. В связи с этим международные исследования в области разработки инновационных идей и современных образовательных технологий направлены на совершенствование образовательного процесса в высших учебных заведениях Германии, Франции, Великобритании, США, Японии, Китая, Польши и других ведущих стран мира служат методологической основой. Также необходима модернизация системы образования, направленная на подготовку современных инженерных кадров в технических вузах, отвечающая требованиям рыночной экономики в эпоху бурно развивающихся техники и технологий.

В всем мире модернизация системы образования, разработка учебных планов и программ обучения в высших учебных заведениях с учетом современных требований рынка, проведение системных исследований, полностью охватывающих внедрение в образовательный процесс инновационных методов обучения и новых образовательных технологий в технических вузах является актуальной задачей сегодняшнего дня. В связи с этим важно развивать творческое мышление инженерных кадров, расширять возможности использования современных цифровых технологий, направленных на повышение их профессиональной компетентности, создавать учебную литературу нового поколения и использовать их в образовательном процессе, организовывать лекционно-просветительскую деятельность, а также практические занятия с использованием наглядных программ физических явлений, происходящих в технологических процессах.

В Узбекистане большое внимание уделяется проблемам модернизации высшей школы и реформирования образования, внедрения инноваций в систему образования. В системе образования технических вузов, исходя из требований потребителей кадров, с каждым днем возрастает спрос на разработку современных наук и алгоритмов их обучения, новых образовательных технологий, учебников нового поколения, электронных программных разработок, наглядных методов обучения, создания моделей, направленных на объяснение сложных технологических процессов и их физических явлений на основе мультимедийных средств, а также применение этих моделей в образовательном процессе.

В указе Президента Республики Узбекистан № УП-6097 от 29 октября 2020 года² определены важные задачи по опережающему развитию экономического

¹ Education 2030. Incheon Declaration and Framework for Action./http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/education-2030-incheon-framework-for-action-implementation-of-sdg4-2016-en_2.pdf

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 29.10.2020 г. № УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» <http://lex.uz/docs/5073449>

сектора экономики и социальной сферы, а также по полному использованию научно-инновационный потенциал при общей мобилизации научных, интеллектуальных и финансовых ресурсов. Это требует широкого внедрения в систему образования передового зарубежного опыта, выявления и определения приоритетов непрерывного реформирования науки на перспективу, а также быстрой модернизации образовательного процесса с учетом современных требований.

Исследование данной диссертации служит в определенной мере выполнению задач, указанных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2018 года № PQ-3682 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы внедрения инновационных идей, технологий и проектов» и Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 года «Система организации образовательного процесса в высших учебных заведениях» о мерах по совершенствованию» № 824, а также указом Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № 3775 «Повышение качества образование в высших учебных заведениях и их широкое внедрение в стране» в Постановлении «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия в комплексных реформах» и других нормативно-правовых документах, связанных с этой деятельностью, и модернизации образовательного процесса в технических вузах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники в республике I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Модернизации высшего профессионального образования и развитию инновационных методов обучения в нашей республике посвящены научные труды следующих известных ученых: И.Ф. Исаев, Х.А. Туракулова, И.С. Джабборова, Р.Дж. Ишмухамедов, А. Пардаев, Ж.Г. Юлдошев, С.А. Усманов, А.А. Ходжаниезова, М. Лутфуллоев, А.М. Касимахунова, М.А. Файзиев, Н.Н. Шоев.

